



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



## BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY YO'NALGANLIKNING NAMOYON BO'LISHI

**Saidova Nargiza Ismatulla qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat*

*Pedagogika Universiteti, Umumiy psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

**Sattarova Mohinur Sherali qizi,**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika universiteti,*

*Magistratura bo'limi, 1-bosqich magistranti.*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy yo'nalganlikni namoyon bo'lishi hamda kasbiy o'zini o'zi anglashning uslubiy asoslari, shart-sharoitlari, imkoniyatlari va metodlari to'g'risida so'z yuritiladi. Bo'lajak pedagog uchun inobatga olish zarur bo'lgan xususiyatlar quyidagicha yoritib beriladi.*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются проявления профессиональной направленности у будущих учителей, а также методологические основы, условия, возможности и методы профессионального самосознания. Особенности, которые необходимо учитывать будущему педагогу, освещаются следующим образом.

**Annotation.** This article discusses the manifestation of professional orientation in future teachers, as well as the methodological foundations, conditions, opportunities, and methods of professional self-awareness. The characteristics that need to be considered by future educators are presented as follows.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, identifikatsiyalash, kasb, akmeologik, o'z- o'zini anglash, ta'lim, metod, uslub, kompitensiya, integrativ.

Mamlakatmiz o'z oldiga qo'ygan stretegik maqsadlariga erishish hamda salohiyatli kadrlar tayyorlash masalasi bilan uzviy bog'liqdir. Kasbiy o'zini o'zi anglash – professional faoliyatda inson taraqqiyotining eng yuqori bosqichi hisoblanadi. Shaxsnинг professional o'zini o'zi tanishi ushbu hayotda o'zingiz nimani aniq belgilashga hamda ma'lum faoliyat turida sa'y - harakatni investitsiyalashga yordam beradi. Shaxs o'zini o'zi anglashi tufayli emas, balki o'zida o'z-o'zini anglashga nisbatan ichki ehtiyoj, turtki, motiv kabilalar mavjudligi uchun ham u insondir.

Kasbiy yo'nalganlik - bo'lajak o'qituvchi tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va salohiyatning chuqur o'r ganilishi va ularning amaliyotda qo'llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy yo'nalganlik bo'lajak o'qituvchi tomonidan alohida ko'nikma, malakalarning egallanishini emas, har bir mustaqil yo'nalishga ko'ra integrativ bilimlar va ko'nikmalarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya sohaga ko'ra bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, eng muhimi, ilmiy ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi. Mutaxassislarning kasbiy yo'nalganligi masalasini tadqiq etishga keyingi paytlarda qiziqish ancha kuchayib bormoqda. Bu borada qarashlar, fikr-mulohazalarning xilma-xilligi mazkur muammo xususida hozircha tizimlashtirilgan hamda yagona kontseptual model yaratishga imkon bermaydi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

O'z-o'zini anglash. Bu yo'nalishga sohaga ko'ra umumiy madaniy hamda kasbiy bilim egallash, axborot faoliyati tushunchasini bilish va qabul qilish; kasbiy pozitsiyani namoyon etish; o'z-o'zini tarbiyalash uchun ta'lim resurslaridan unumli foydalanish; real faoliyatning qonun-qoidalar bilan muvofiqligini aks o'rganish kabilalar ham kiradi.

Axborot texnologiyalari ko'nikmalarini rivojlantirish. Bunda bo'lajak o'qituvchi tezkor pedagogik muammolarni hal etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish; ta'lim muassasasida axborot texnologiyalarining ta'sirini ta'minlashda ishtirot etish kabilarni o'zlashtirishi lozimdir. Hozirgi zamonda axborot texnologiyalarini o'zlashtirmagan shaxs nafaqat ta'lim sohasida, aksincha hech bir sohada faoliyat yurita olmasligi barchaga ma'lumdir.

Ijodiy faollik hamda mustaqillik. Bu qoida bo'lakaj o'qituvchiga o'qitishni shunday tashkil etishni nazarda tutadiki, bunda o'quvchilar ilmiy bilimlarni va ularni amalda qo'llash usullarini ongli hamda faol egallab olishadi. Ularda ijodiy tashabbuskorlik hamda o'quv faoliyatida mustaqillik, tafakkur, nutq madaniyati va shu bilan birga ilmiy dunyoqarash, e'tiqod tarkib topadi.

Kasbiy faoliyat samaradorligining shartlaridan biri bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Mashhur rus psixolog I.K. Platonovning fikriga ko'ra, "kasbiy tayyorgarlik – bu o'zini kerakli kasbiy faoliyatni bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi hamda uni bajarishga intiluvchi shaxsning subyektiv holatidir".

R. Ishmuhamedov, A. Abduqodirov va A. Pardaevlar kasbiy yo'nalganlik negizida "bo'lajak mutaxassisning psixologik, psixofiziologik, jismoniy va ilmiy-nazariy hamda amaliy tayyorgarligi" aks etishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Kasbiy yo'nalganlikning ahamiyati quyidagilardan iborat:

Kasbiy yo'nalganlik shaxsning o'z qiziqishlari, qobiliyatları va hayotiy maqsadlariga mos keladigan kasbni tanlash va bu yo'nalishda rivojlanishga yordam beruvchi muhim omildir. Uning ahamiyati quyidagi jihatlarda namoyon bo'ladi:

To'g'ri kasb tanlashga yordam beradi: Kasbiy yo'nalganlik orqali inson o'z qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan kasbni aniqlaydi, bu esa kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatning asosi bo'ladi.

Motivatsiya va ishga bo'lgan qiziqishni oshiradi: Odam o'zi sevgan ish bilan shug'ullansa, ko'proq ilhomlanadi va yuqori natijalarga erishishga intiladi.

Shaxsiy rivojlanishga turki bo'ladi: Kasbiy yo'nalganlik insonning o'z ustida ishlashi, yangi bilim va ko'nikmalarini egallashi uchun rag'batlantiradi.

Ishga bo'lgan qoniqish hissini kuchaytiradi: O'ziga mos kasbda ishslash shaxsning kasbiy va hayotiy baxtiyorligini ta'minlaydi.





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



Ish unumdorligini oshiradi: Kasbiy yo‘nalganlik yuqori motivatsiya va ishtiyoyq orqali mehnat unumdorligini yaxshilaydi.

Barqaror kasbiy o‘sishni ta’minlaydi: Odam o‘z sohasida doimiy ravishda rivojlanib, yangi cho‘qqilarga erishadi.

Ijodkorlik va yangilikka intilishni rivojlantiradi: O‘z kasbiga qiziqish va ishtiyoyq bilan yondashgan inson ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlash qobiliyatini namoyon etadi.

Kasbiy inqirozlarning oldini oladi: To‘g‘ri yo‘nalganlik kasbiy charchoq, zerikish yoki motivatsiya yo‘qolishining oldini olishga yordam beradi.

Jamoada samarali ishslash ko‘nikmalarini rivojlantiradi: Kasbiy yo‘nalganlik shaxsga jamoa bilan muvaffaqiyatli hamkorlik qilish va ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda yordam beradi.

Hayotiy maqsadlarni aniq belgilashga yordam beradi: Inson o‘z kasbiy yo‘nalishini aniqlash orqali hayotda qanday natijalarga erishmoqchi ekanligini aniq tushunadi.

Kasbiy yo‘nalganlik ayniqsa, bo‘lajak pedagoglar uchun muhim, chunki ularning o‘z kasbiga bo‘lgan ishtiyoqi va motivatsiyasi bevosita ta’lim jarayoniga va o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Kasbiy yo‘nalganlik shaxs yo‘nalganligining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, motivlar hamda ehtiyojlar ta’sirida aks etadi. Pedagogik faoliyatni tashkil etishda birinchi holat, ya’ni haqiqiy pedagogik yo‘nalganlik pozitiv xarakter kasb etib, pedagogik faoliyatda akmeologik darajaning qo‘lga kiritilishiga yordam beradi, deb bevosita aytib o’tishimiz joiz hisoblanadi.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda faqatgina birinchi holatdagi pedagogik tayyorgarlik yuqori natijalarning qo‘lga kiritilishiga yordam beradi. Haqiqiy pedagogik yo‘nalganlikning asosiy motivi pedagogik faoliyatga qiziqishdir.

Kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda kasb tanlash motivlarining yaqqolroq namoyon bo‘lishi kuzatilsa-da, faqat ularning o‘ziga kasbiy tayyorgarlikning shakllanishida yetakchi rol o‘ynay olmasligini e’tiborga olish lozim deb o‘ylayman. Chunki, shaxsning mavjud jismoniy, ruhiy hamda ma’naviy imkoniyatlari tanlangan kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo‘yadigan talablari darajasi bilan mutanosib bo‘lishi pedagoglarning kasbiy faoliyat muhitiga normal moslashishiga hamda refleksiyaning shakllanishiga yordam beradi, desak mubolag’a bo’lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga moslashtirishda ularning obyektiv imkoniyatlaridan kelib chiqib yondashish, hamda tanlangan kasb va faoliyat talablariga shaxs imkoniyatlarining identifikatsiyalashuvi maqsadga muvofiq sanaladi. Masalan, o‘qituvchilik kasbini tanlashda nafaqat bu kasbni sevish, bolalar bilan muloqotga kirishish istagi, aksincha kasbiy faoliyatning shaxsga nisbatan qo‘yadigan jismoniy, psixologik hamda ijtimoiy talablar uning imkoniyatlari doirasida bo‘lishi kasbiy bilim, malaka va shuning bilan birga, ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yordam beradi. Shunday ekan, bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy





## **TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR**



moslashtirishda masalaning mazkur jihatlarini nazariy asoslash va bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy imkoniyatlarini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7-fevraldaggi PF-4947-sonli
2. «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
3. Ta`limni axborotlashtirish - 2018: Xalqaro ilmiy-metodik konferentsiya materiallari (Kostroma, 2018 yil 14-17)
4. Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Moliya, 2013. – 192 b.
5. Asqarova O‘.M., Hayitboev M., Nishonov S.M. Pedagogika. – T.: Talqin, 2018. – 287 b.
6. Ismoilova N., Abdullaeva D. Trening o‘tish metodikasi. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2019. – 96 b.

### **Internet saytlari:**

1. [http://www.deti.zr.ua/show\\_article.rhr?a\\_id=300105](http://www.deti.zr.ua/show_article.rhr?a_id=300105). Gosudarstvennaya pomosh detyam- sirotam.
2. <http://erarhia.onego.ru/sirota.htm>. Sirostvo v istorii Rossii.
3. <http://kid-in-danger.narod.ru/>. Sotsialniy priyut dlya detey.

